

**MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA TRANSCHEGARAVIY SUV
RESURLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI*****Shoyimqulova Sevinch Sherzod qizi****O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti siyosatshunoslik
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Hududdagi yirik daryolar- Amudaryo va Sirdaryoning sathi va oqimi bo'yicha davlatlararo kelishuvlar yetarli darajada samara bermayotganligi sababli, suvdan foydalanish bo'yicha nizolar vujudga kelmoqda. Maqolada, shuningdek, transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida muammoni hal qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы использования трансграничных водных ресурсов в Центрально-Азиатском регионе. В связи с недостаточной эффективностью межгосударственных соглашений по уровню и стоку крупнейших рек региона - Амударьи и Сырдарьи возникают споры по водопользованию. В статье также анализируются экологические, социально-экономические и политические факторы управления трансграничными водными ресурсами. Даны рекомендации по решению проблемы на основе международного опыта.

Abstract: This article discusses the issues of using transboundary water resources in the Central Asian region. Due to the insufficient effectiveness of interstate agreements on the level and flow of the major rivers in the region - the Amu Darya and the Syr Darya, water use disputes are arising. The article also analyzes the ecological, socio-economic and political factors in the management of transboundary water resources. Recommendations are given to solve the problem based on international experience.



Kalit so'zlar: Transchegaraviy suv, Amudaryo, Sirdaryo, Markaziy Osiyo, suv resurslari, integratsiyalashgan boshqaruv, ekologiya, suv nizolari.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining suv resurslari bilan har doim ham boy bo'lmagan. Mintaqadagi ikki asosiy daryo-Amudaryo va Sirdaryo- bir nechta davlatlar hududidan o'tadi va bu holat ushbu suv manbalarini "transchegaraviy" qiladi. Bu esa o'z navbatida mintqa davlatlari o'rtasida suvdan foydalanish borasida muammolarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, yuqori oqimda joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston mamlakatlari gidroenergetika ehtiyojlarini qondirish uchun daryolarning suvini ko'proq saqlab qolishga harakat qilsa, quyi oqimdagi O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston esa qishloq xo'jaligi uchun suvi ko'proq talab qiladi. Bu qarama-qarshi manfaatlar sabab suv resurslarini adolatli taqsimlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Yana bir muhim jihat- bu ekologik falokat xavfidir. Orol dengizining qurishi, daryolar sathining kamayishi va tuproq sho'rlanishi hududda ekologik muvozanat buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa aholining salomatligi va iqtisodiy holatga bevosita salbiy ta'sir qilmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun transchegaraviy suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish tizimiga o'tish, shuningdek, xalqaro konvensiyalar asosida o'zaro kelishuvlar ishlab chiqish zarur. Bunda Yevropa Ittifoqi yoki Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasidan foydalanish mumkin. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi suv resurslarini boshqarishda xalqaro huquqiy me'yorlarning roli ham kata ahamiyatga ega.

BMTning 1997-yilda qabul qilingan "Transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish tog'risidagi konvensiyasi" davlatlar o'rtasidagi suv taqsimoti va undan adolatli foydalanish tamoyillarini belgilaydi. Afsuski, bu konvensiyaga mintaqaning barcha davlatlari qo'shilmagan, bu esa xalqaro huquqiy mexanizmlarning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Yoshlar, fuqarolik jamiyati vakillari va ekologik tashkilotlarning ham bu jarayonlarda faol ishtiroki taminlansa, hamkorlikka asoslangan va barqaror yechimlarga erishish imkoniyati yanada ortadi. Suv resurslari atrofidagi muammolar nafaqat texnik yoki siyosiy, balki ijtimoiy



muammolar ham bo'lgani uchun keng jamoatchilikning xabardorligi va ishtiroki muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amudaryo va Sirdaryo suv resurslarini boshqarish bo'yicha mintaqaviy strategiyalar. - Toshkent: TIQXMMI nashriyoti, 2020. - 240b
2. Philip Micklin. The Aral Sea Disaster: Causes, Consequences, and Future. - Springer, 2014. - P. 947-949.
3. Shodmon Ibrohimov. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy va huquqiy jihatlar. - Toshkent: Fan, 2018. 2023. - B. 153-154.
4. Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazi (CAREC). Markaziy Osiyo suv resurslarini boshqarish: barqaror rivojlanish uchun strategiyalar. - CAREC nashriyoti, 2021. - 154 b.
5. Mukhamedjanova, G. (2021). Transboundary Water Management in Central Asia: Legal Frameworks and Regional Cooperation. Central Asian Journal of Water Research, Vol. 7(2), pp. 45-62.